

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY TA‘LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

Qo‘lyozma huquqida

UDK: 336.226.212.1(575.1)

UMIROV XURSHID ISLOMOVICH

**BUDJET DAROMADLARINI SHAKLLANTIRISHDA MOL-MULK
SOLIG‘INING AHAMIYATINI OSHIRISH MASALALARI**

08.00.07-“Moliya, pul muomalasi va kredit”

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun
yozilgan**

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar: i.f.d., professor Qiyosov Sh.U.

TOSHKENT – 2025

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
1-BOB MOL-MULK SOLIG‘INING NAZARIY ASOSLARI VA MAHALLIY BUDJET DAROMADLARINI SHAKLLANTIRISHDAGI AHAMIYATI.....	15
1.1. Mol-mulk solig‘ining iqtisodiy mohiyati va mahalliy budjetning mustaqilligini ta’minlashdagi ahamiyati.....	15
1.2. Yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk soliqlari amaliyotining konseptual asoslari va iqtisodiy samaradorligi mezonlari.....	31
1.3. Mol-mulkni soliqqa tortishning samarali tadbirlariga oid xorij tajribalari	46
I-bob bo‘yicha xulosalar.....	66
II -BOB. BUDJET DAROMADLARINI SHAKLLANTIRISHDA MOL-MULK SOLIG‘INING ISHTIROKI HOZIRGI ZAMON AMALIYOTINING TAHLILI.....	69
2.1. O‘zbekistonda yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk soliqlari amaliyotining rivojlanish qonuniyatlari, muammolari va ularni hal qilishga oid davlat tadbirlari tahlili.....	69
2.2. Yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk soliqlarini undirish mexanizmi samaradorligi tahlili.....	76
2.3. Yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk soliqlarining budjet daromadlari shakllanishidagi o‘rni va mazkur soliqlarni budjetga undirish tartibining tahlili.....	88
II-bob bo‘yicha xulosalar.....	97
III -BOB. YANGI O‘ZBEKISTONDA BUDJET DAROMADLARINI SHAKLLANTIRISHDA MOL-MULK SOLIG‘INING AHAMIYATINI OSHIRISH YO‘NALISHLARI.....	100
3.1. Mol-mulk solig‘i ma’muriyatchiligi muolajalarini takomillashtirish yo‘nalishlari.....	100
3.2. Yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk soliqlarini hisoblash va undirish mexanizmini takomillashtirishning kompleks-maqсадli dasturini ishlab chiqish.....	117
III-bob bo‘yicha xulosalar.....	124
XULOSA.....	126
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	132
ILOVALAR.....	141

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda mol-mulkni soliqqa tortish turli xil elementlar to'plamiga ega bo'lgan turli xil soliqlarni o'z ichiga olgan juda ko'p sonli modellar bilan ifodalanadi. Darxaqiqat, mol-mulkni soliqqa tortish jahon amaliyotida uning turli xil modifikatsiyalari uchraydi: egalik qilish xuquqi asosida moliyaviy operatsiyalar va kapital operatsiyalari bo'yicha joriy etilajak soliqlar, soliq masalalari bo'yicha umumlashtirilgan tushuntirish keltirilgan va ma'lumotlar amaldagi soliq qonunchiligi asosida yoritilgan bo'lib, ular bilan bog'liq tartiblar vaqt o'tishi bilan yangilanib boradi. Oxirgi yillarda YaIM qiymatiga nisbatan mulkiy soliqlardan daromadlarning ulushi eng past daraja (0,3%)ni tashkil etgan davlatlarga Estoniya, Meksika, Chexiya Respublikasi, Indoneziyani, eng yuqori daraja (4,1%)ni tashkil etgan davlatlarga esa Buyuk Britaniya, Fransiya, Kanada, Gonkong, Avstraliyani kiritish mumkin¹.

Jahonda budjet daromadlarini shakllantirishda mol-mulk solig'ining ahamiyatini oshirish masalalariga qaratilgan ilmiy izlanishlarga e'tibor qaratilmoqda. Tranzitiv iqtisodiyot sharoitida soliq to'lovchining to'lovchanligi real darajasini hisobga olgan holda mol-mulkni soliqqa tortish amaliyotida davlat va soliq to'lovchilar manfaatlarining balansini ta'minlash, mazkur soliq bo'yicha to'lov intizomiga rioya etilishi holati, imtiyoz va preferensiyalar tizimidan foydalanishning nazariy asoslanganligi va amaliy samaraliligini asoslash bilan bog'liq muammolar bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. iqtisodiyotning hozirgi rivojlanish bosqichida budjet daromadlarini shakllantirish jarayonida mol-mulk solig'ining ahamiyatini oshirish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Biroq mavjud tadqiqotlarda mol-mulk soliqlarini hisoblashning o'ziga xos xususiyatlari, mahalliy budjet daromadlarini ko'paytirishda ko'chmas mulk solig'idan oqilona foydalanish imkoniyatlari, shuningdek, ushbu soliqlarning soliq to'lovchilarning moliyaviy faoliyatiga ko'rsatadigan ta'siri yetarli darajada chuqur

¹OECD (2023), Tax Policy Reforms 2023: OECD and Selected Partner Economies, OECD Publishing, Paris; OECD Annual Tax Policy Reform Questionnaire. URL: <http://www.oecd.org/tax/tax-policy/tax-policy-reforms-in-the-oecdkey-insights.pdf>.

tahlil etilmagan. Shu boisdan, mazkur yo‘nalishda qo‘shimcha ilmiy izlanishlar olib borish zarurati mavjud.

O‘zbekiston so‘nggi yillarda iqtisodiyotni liberallashtirish va investitsion jozibadorlikni oshirish maqsadida keng ko‘lamli soliq islohotlarini amalga oshirmoqda. Bu islohotlar, xususan, mol-mulkdan samarali foydalanishni rag‘batlantirish va iqtisodiyotning barqaror o‘shishiga zamin yaratishga qaratilgan. Quyida ushbu jarayonning mohiyati va asosiy yo‘nalishlari yoritiladi, mavjud imtiyozlarning samaradorligini baholash va optimallashtirish ahamiyatining o‘sganligi, soliq yukini soliq to‘lovchilar o‘rtasida adolatli taqsimlash, barcha toifadagi soliq to‘lovchilarni resurs soliqlarini to‘lashga o‘tkazish va bu borada, «har bir tuman va shaharda, respublika ahamiyatiga molik yirik korxonalar hissasini e‘tiborga olmagan holda, soliqqa tortish bazasini kengaytirish bo‘yicha amaliy chora-tadbirlarni ishlab chiqish»², yuridik va jismoniy shaxslar mol-mulklariga ilmiy asoslangan holda soliq solish masalalariga qaratilgan. Mol-mulkni ilmiy asoslangan holda soliqqa tortish tizimini takomillashtirish xo‘jalik sub‘ektlarining tasarrufidagi mol-mulkdan samarali foydalanish va uni boshqarishga bo‘lgan manfaatdorligini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, mazkur soliqlarning budjet daromadlaridagi ulushini ko‘paytirish orqali davlat moliyaviy barqarorligini mustahkamlash imkonini beradi. Biroq, bu yo‘nalishda mavjud muammolar iqtisodchi olimlar va soha mutaxassislari o‘rtasida keng muhokamalarga sabab bo‘lib kelmoqda, bu boradagi muammolarni tadqiq etish tanlangan mavzuning dolzarbligini belgilab beradi.

Mol-mulkdan samarali foydalanishni ta‘minlashda soliq omillarini kuchaytirish masalasi Yangi O‘zbekistonning 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasini 2022 yilda amalga oshirish bo‘yicha Yo‘l xaritasida alohida ustuvor yo‘nalish sifatida ko‘zda tutilgan»³ ham da muhim yo‘nalish sifatida belgilab berilgan.

²Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik — har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. - T.; O‘zbekiston, 2017. 65-b.

³O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi №PF-60-sonli Farmoni..